yatlidir. Ahmad A'zam asarlarining ichki mexanizmi qandayligini, ularning badiiyatini ta'minlagan omillar nimalardan iboratligini aniqlashga urinish o'qirmanga hayotning ko'zga tashlanavermaydigan mayda hodisalari zamiridagi ulkan ma'nolarni anglash imkonini beradi. "Ahmad A'zam ijodidagi eng muvofaqqiyatli va ijodiga shon-shuhrat olib kelgan asari "Ro'yo yoxud gulistonga safar" asari bo'lib, asar roman janirida yozilgan. Asar boshida "Yettinchi javob: bu qissamizning avvali ham tush, o'rtasi ham tush, oxiri ham tushdur" ("Yusuf alayhisalom qissasi") ko'rinishida jumla keltiriladi. Roman boshlanma, kirish , asosy qismdan tashkil topgan. Asarning umumiy hajmi 285 betni tashkil qiladi. Boshlanma Ahmad A'zamining teran fikr va mulohazalari, asar haqidagi jumlalar bilan, shu bilan birga, asarning yozilish sabablari keng yoritilgan. Adabiyotshunoslar tomonidan ushbu asarga quydagicha ta'rif beriladi. "Romanning o'ziga xosligi shundaki, uni to'lig'icha ijtimoiy badiiyat namunasi, deyish ham, ijtimoiy muammolar inson ruhiyatini ochish vositasigina bo'lgan asar deb sanash ham mumkin. Adibning estetik manzara yaratishda mayda detallarni batafsil tasvirlash usuli o'qirmanni hushyorlikka, biror tafsilotga befarq bo'lmaslikka, asarni sinchiklab o'qishga undab, uning badiiy saviyasini o'stiradi. Romanda qahramon tushib qolgan ilojsiz vaziyat kitobxonning rahmini keltirish uchun emas, tirik odamni yaxshi va yomon, kuchli va ojiz, ezgu va yoqimsiz qirralari bilan haqqoniy ko'rsatish maqsadida tasvirlangan". Ahmad A'zam adabiyotimiz ravnaqi uchun harakat qiladi, adabiyotimizni yevropa mamlakatlarida ham ilg'or va izlanuvchan yoshlar tomonidan o'rganilishini chin dildan xohlaydi va quydagicha fikr yuritadi. Jumladan, Ahmad A'zam o'zbek adabiyotining katta jahon adabiyotidan munosib o'rin egallashini istaydi: "O'zbek adabiyotini chetda bilishlari uchun, eng avvalo, o'zbek millati, davlatining nufuzi chetda ham balandroq bo'lishi kerak. Biz sho'ro paytida, falon yozuv-chimizni dunyo taniydi, u dunyoning falon tillariga tarjima qilingan deb, dunyoni sotsialistik lagerdan kengroq tasavvur qilolmay, faxrlanib yurar edik. Dunyoning bizga qiziqishi bo'lsa, o'zi bildirar edi. Bizda o'zimizni targ'ib etish bo'yicha rivoj yo'q, ko'proq o'zimizni o'zimizga maqtaymiz, xususan, adabiyotni chetga tanitish bo'yicha... hech qanaqa ish qilinmaydi. Keyin bu yerda tilni bilish masalasi ham bor. Qodiriy turkiy boshqa tillarda, tojik tilida Qodiriy bo'lishi mumkin, lekin Ovrupo tillarida uni butun borlig'i bilan ko'rsatishning sira iloji yo'q. Uni chetda mashhur qilish uchun Yaponiya va yaponlar singari e'tiborda turish kerak – Haqiqat ko'ziga tik qarab kelgan, qarayotgan adib va adabiyotshunos Ahmad A'zam fikricha, vaqt ko'p narsaning hakam – "Hozirgilaridan qanday asarlar yashab qoladi, degan savolning javobi kelajak kitobxoniga oydin bo'ladi. Har holda, achchiq haqiqat, shakkoklik emas bu, ko'p asarlarimiz tarix chig'irig'idan o'tmaydi. Kimdir yo kimlarningdir xohish irodasi bilan emas, zamon o'zgarishi, mafkura – fikrlashimiz yangilanishi bilan qancha asarlarimiz o'tmish mulkiga aylandi, bu jarayon hali davom etyapti, adabiyot ehtimol shafqatsizlarcha o'zini tozalayapti, bizning yozganlarimizdan qanchasi bir kuni o'tmish mulki bo'lib qoladi, bu boshdan do'ppini olib, xotirjam o'ylab ko'radigan masala", deb fikr bildirgan.

Xulosa. Ahmad A'zam ijodida hikoya janri alohida ahamiyatlidir. Shunday ekan, yozuvchi ijodida obrazlarni tanlashda o'ziga xosligi, ramziylik, falsafiylik yetakchilik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Normatov U. Janr imkoniyatlari. Toshkent, 1970, 350-bet.
(2). Mirzarahimova Z. Ahmad A'zam asarlari lingvopoetikasi. Maqola, 2022, 862-bet.
(3). Qurbonov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent, 2010, 400-bet.
(4). Mirzarahimova Z. Ahmad A'zam asarlari lingvopoetikasi. Maqola, 2022, 859-bet.
(5). Аъзам А. Ҳали ҳаёт бор. Тошкент, "Ўзбекистон", 2011, 250-бет.

Internet saytlari

wikipedia.www.uz
Arxiv.uz

Nasirova Zuhra (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti maktabgacha talim fakulteti katta o'qituvchisi)

BADIIY ASARLARDA DARAXT O'SISH TINCHLIK RAMZI SIFATIDA

Annotatsiya. *Badiiy asarlarda daraxt obrazi ko'plab ma'nolarda talqin qilinishi o'rghanilgan. Daraxtlar ko'p hollarda hayot, o'sish, kuch va sabr-toqat ramzi sifatida ko'riladi. Ular tabiatning go'zalligini, tinchlik va sokinlikni ifodalaydi. Jahon adabiyoti kontekstida ko'plab yozuvchilar o'z asarlarida daraxt qiyofasiga murojaat qilganlar. Qadim zamonlardan beri daraxt insoniyatning ma'naviy madaniyatining eng sevimli, sirli va ko'p qirrali ramzlaridan biri bo'lib kelgan. Insonlar xalq og'zaki ijodida daraxtning ruhi borligi va faqat o'ziga xos muqaddas mistik kuchga ega ekanligiga ishonganlar. Shu sababli mazkur maqolada badiiy asarlarda "daraxt" obrazining asosiy mohiyati va unga oid turli yondashuvlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, madaniyat, mistika, tahlil, sintez, tinchlik, o'sish, mangu, ibtido, barhayot.*

Насирова Зухра (старший преподаватель факультета дошкольного образования Чирчикского государственного педагогического университета)

ДЕРЕВО КАК СИМВОЛ РОСТА И МИРА В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация. *В художественных произведениях образ дерева изучается во многих смыслах. Деревья часто рассматриваются как символ жизни, роста, силы и терпения. Они олицетворяют красоту природы, покой и безмятежность. В контексте мировой литературы почти все писатели обращались к образу дерева в своих произведениях. Издревле дерево было одним из самых любимых, загадочных и многогранных символов духовной культуры человечества. Люди верили в то, что в устном народном творчестве дерево имеет душу и обладает только особой священной мистической силой. Поэтому в данной статье будет проанализирована основная сущность образа "дерева" в художественных произведениях и различные подходы к нему.*

Ключевые слова*: духовность, культура, мистика, анализ, синтез, мир, рост, вечность, бытие, жизнь.*

Nasirova Zukhra (Senior Lecturer at the Faculty of Preschool Education, Chirchik State Pedagogical University)

A TREE AS A SYMBOL OF GROWTH AND PEACE IN THE WORKS OF ART

Annotation*. In the works of art, the image of a tree is studied in many senses. Trees are often seen as a symbol of life, growth, strength and patience. They embody the beauty of nature, peace and serenity. In the context of world literature, almost all writers have referred to the image of a tree in their works. Since ancient times, the tree has been one of the most beloved, mysterious and multifaceted symbols of the spiritual culture of mankind. People believed that in oral folk art, a tree has a soul and possesses only a special sacred mystical power. Therefore, this article will analyze the basic essence of the image of a "tree" in works of art and various approaches to it.*

Key words*: spirituality, culture, mysticism, analysis, synthesis, peace, growth, eternity, being, life.*

Kirish. Qadim zamonlardan beri daraxt insoniyatning ma'naviy madaniyatining eng sevimli, sirli va ko'p qirrali ramzlaridan biri bo'lib kelgan. Insonlar xalq og'zaki ijodida daraxtning ruhi borligi va faqat o'ziga xos muqaddas mistik kuchga ega ekanligiga ishonganlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqiotchilar talqinida L.Tolstoy asarlarida daraxtlar tinchlik va sokinlik, I.S.Turgenev asarlarida ko'plab avlodlarni ko'rishi bilan barqarorlik va o'zgarmaslik ramzi sifatida tahlil qilinadi. Daraxtlarning eng sodda, hech qanday ifodalarsiz tasvirini F.Dostoevskiy asarlarida deb izohlagan O.N.Smislova "Dostoevskiyning "Telba" asarida daraxt obrazi"[1] maqolasida "Daraxt yonidan o'ta turib baxtli bo'lmaslik? Bilasizmi, bunday holatga tushunmayman." Ifodasini tahlil qilarkan daraxtlar inson ruhiyatini tinchlantiruvchi va insonni tabiat voqealari bilan uyg'unligi, daraxt mohiyatini anglash qobiliyatidir, deya tahlil qiladi. Uning romanlari va hikoyalarida daraxtlar, ko'pincha, ruhiy kechinmalarni, hayot aylanishlarini va inson qalbining chuqurligini anglatadi. Ivan Turgenev asarlarida qahramonlarning tabiati, kayfiyati, ichki dunyosini aks ettiruvchi alohida daraxtlar singari o'rmon obrazi ham muhim o'rin tutadi. Daraxtlar, ko'pincha, his-tuyg'ularni, kechinmalarni, chuqur ma'nolarni, jumladan, muhabbat, iztirob va milliy o'zlikni anglatuvchi timsol sifatida ishlatiladi. S.Yesenin uchun qayin qiyofasi rus tabiatining, bolalik va sevgining ramzi, shuningdek, o'z dunyoqarashining ramzidir. G.G.Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" romanida daraxtlar oilaning tarixi va avlodlar o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatadi.

Tadqiqot usuli va muhokama. Ushbu tadqiqot qiyosiy tahlil, tipologik jihatdan nazariy asoslarini tahlil qilish hamda uning amaliy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Qiyosiy tahlil orqali badiiy asarlarda "daraxt" obrazi L.Tolstoy, I.S.Turgenev, F.Dostoevskiy, Ulug'bek Hamdam asarlari orqali tadqiqot obyektlarini bir-biri bilan qiyoslash va ularning o'xshashliklari hamda farqlarini aniqlash amalga oshiriladi.

Tipologik tahlil. Bu usul orqali tadqiqot obyektlarini ma'lum bir mezonlar asosida guruhlash va ularning turli xil tipologiyalarini aniqlashga qaratiladi. Qator yozuvchilar asarlaida "daraxt" obrazini jonlantirish, undan badiiy foydalanish mezonlaridagi tipologiya tahlil qilinadi.

Nazariy asoslarni tahlilida tadqiqotning nazariy jihatlari aniqlanadi. Bu, mavjud nazariyalar, konseptlar va modellarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Tadqiqotning nazariy asoslari tadqiqot natijalarining asosini tashkil etadi.

Badiiy asarlarda daraxt obrazi chuqur ramziy ma'noga ega bo'lib, turli madaniyatlarda va adabiyotlarda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Daraxtlar, ko'p hollarda, hayot, o'sish, sabr-toqat, kuch va umid ramzi sifatida talqin qilinadi. Ular inson hayotining turli bosqichlarini, tabiiy muhitni va inson ruhiyatini aks ettiradi. Daraxtlar badiiy asarda oila va avlodlar bilan bog'liq bo'ladi. Ularning shoxlari va barglari avlodlar davomiyligini, oila bog'lanishlarini ifodalaydi. Daraxtlar inson va tabiat o'rtasidagi aloqani aks

[1] О.Н.Смыслова. Образ дерева в романе "Идиот" Ф.М.Достоевского. "Научный вестник", 2018, №3, с. 92–103.

ettiradi. Ular inson hayotining muhim qismi bo‘lib, tabiiy muhitning go‘zalligini va uning himoya qilinishi zarurligini ta’kidlaydi.

Yozuvchilar daraxt obrazini tasvirlar ekanlar unda emotsionallik va milliy xarakter bo‘rtib turadi. Abdulla Qodiriy, A.Cholpon, Usmon Nosir, Asqad Muxtor, Said Ahmad asarlarida daraxt obrazi hayot, o‘sish, kuch va mustahkamlik ramzi sifatida talqin etiladi. O‘zbek asarlarida daraxt obrazlari orqali qahramonlarning hayot yo‘llari va o‘sish jarayonlari tasvirlanadi. Daraxtlar qahramonlarning his-tuyg‘ularini, tabiiy go‘zallikni, tabiat va inson o‘rtasidagi bog‘lanishni, umid va tinchlikni ifodalaydi. Daraxtlar, ayniqsa, qishloq hayotining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatiladi. Daraxt nafaqat adabiyotda, balki hayotda, musiqada, rassomchilik, madaniyat va falsafadagi yetakchi ramziy obraz hisoblanadi. Daraxtlar tasviri chuqur ildizlarga va turli ma’nolarga ega. Olimlar va faylasuflar daraxtlarni alohida ahamiyatga ega ekanini e’tirof etadilar. Yozuvchilar daraxtlarning ildizlari, shoxlari va barglariga o‘zgacha ramziy mano sifatida yondashib inson hayotining turli jabhalarini va tajribalarini tasvirlash uchun tasviriy vosita sifatida qo‘llaganlar.

Jahon adabiyoti kontekstida daraxtga qayg‘u va iztiroblaridan forig‘ bo‘lish uchun yuzlansalar, ayrim hollarda uning go‘zalligi, ilohiy qudratidan kuch olib zavqlanish hollari tasvirlanadi. Falsafiy nuqtayi nazardan, daraxt tabiatning kuchli va o‘ziga xos qismidir, u o‘zining qiyofasini va mavjudligini har qanday sharoitlarda ham saqlab qoladi.

O‘rmon va alohida daraxtlar, ayniqsa, archa va qarag‘aylar tasviri tabiatning mustahkamligi va barqarorligini, shuningdek, u bilan ma’naviy bog‘liqligini aks ettiruvchi dunyoqarashi va badiiy uslubining asosiy unsurlaridan biridir. O‘rta Osiyo xalqlari adabiyotida daraxt – uy, oila munosabatlari, qarindoshlar timsolida gavdalanadi. Xalq o‘g‘zaki ijodida daraxt uy, qishloq, vatan, oila, bolalar, do‘stlar ramzi sifatida ifodalanadi. Dono xalqimiz daraxt obrazini qahramonlarning tabiati, kayfiyati, ichki dunyosini aks ettiruvchi timsol sifatida qaraganlar.

O‘zbek romanlari va hikoyalarida daraxtlar, ko‘pincha, ruhiy kechinmalarni, hayot aylanishlarini va inson qalbining chuqurligini anglatadi.

Daraxtlar, ayniqsa, qarag‘aylar tasviri tabiatning mustahkamligi va barqarorligini, shuningdek, u bilan ma’naviy bog‘liqligini aks ettiruvchi dunyoqarashi va badiiy uslubining asosiy unsurlaridan biridir.

Adabiyotshunos va tilshunos olimlar tomonidan turli tillar va madaniyatlarda daraxtlarning metaforik ma’nosi, ularning turli xil hissiy holatlari va g‘oyalarini yetkazishdagi roli o‘rganilgan. Daraxt tasvirini badiiy timsol sifatida tahlili, uning sujet rivojlanishidagi roli, personajlar yaratilishi va muallifning transferi tahlil qilingan tadqiqotchi D.Israfilova “Daraxt konseptining ingliz, rus tillarida ifodalanishi”nomli ilmiy tadqiqotida daraxt obrazini konseptual xususiyatlarini tahlil qiladi. Unda ingliz bolalar adabiyotida go‘zal o‘rmonlar, daraxt va hayvonot dunyosi, daraxt ustida va ostida yashovchi qushlar, tipratikan, hasharotlar uyasi sifatida xizmat qilganini tahlil qiladi. Bolalar adabiyotida daraxt turli ranglar: fasllar almashinuvi sifatida keladi.

Jahon adabiyoti kontekstida daraxt mangulik timsoli sifatida insonning ma’naviy fazilatlarini aks ettiradi. Tadqiqotchi Z.H.Nasirova o‘zbek va yapon adabiyotini qiyoslab o‘rganar ekan, unda Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik”, Yukio Mishimaning “Asl qiyofa” asarlarida daraxt obrazi tipologiyasi tahlil qiladi. Daraxt obrazining badiiy va ilmiy asarlarda tahlili ko‘plab jihatlarni o‘z ichiga oladi. Badiiy asarlarda u ko‘proq ramziy va emotsional kontekstda ishlatilsa, ilmiy asarlarda ekologik, psixologik va madaniy jihatlari o‘rganiladi. Ushbu tahlil daraxt obrazining inson hayotidagi o‘rni va ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik”, Yukio Mishimaning “Asl qiyofa” asarlarida bosh qahramonlar daraxt tabiat yaratgan mo‘jiza bilan inson tomonidan yaratilgan san’at asarlari o‘rtasida ilohiy kuch mavjudligini his qilishadi va boshqalar shu kuchni tuyishidan umidvor bo‘lishadi.

“Shu kecha men hech qancha uxlamadim. Shamolda bir maromda shovullab turgan daraxtlarning ochiq derazamdan kirayotgan qo‘shig‘i meni barvaqt uyg‘otdi. Uzoq, juda uzoq tinglab yotdim... Va shu choqqacha yozgan qo‘shiqlarimning hammasi daraxtzorning shovullashi qarshisida hech ekanligini idrok etdim ich-ichimdan g‘alati tug‘yon to‘lqini otilib chiqdi-da, o‘zimni ham oqiza ketdi. Men boru yo‘g‘imdan ayrildim, judo bo‘ldim. Agar bastakor bo‘lganimda edi, yagona qo‘shiqqa umrimni bag‘ishlardim. Uni tinglagan kishi daraxtzorning o‘sha kechasi ochiq derazamdan yog‘ilgan nidosini eshitar, men kabi yangi bir qo‘shiq kuylashga ehtiyoj sezar...o‘zini shovullayotgan daraxtzor bag‘riga tashlar... barcha olamlarning mazmunini o‘zida jo etgan qo‘shiqqa nihoyat oshno qilgani uchun tiz bukib Allohga shukrona aytib yig‘lar, onadan qayta tug‘ilardi...”[1] desa, “Asl qiyofa” asari qahramoni “Men xonada o‘tirib deraza tashqarisida u qadar baland bo‘lmagan zarang daraxtini shamol egishga urinayotganini kuzatdim. Zarang daraxti aqlni shoshirish darajasida ajoyibligidan –yuragim siqildi. Unda tinch, ohista ilohiy kuy taralmoqda edi,” deydi.

[1] Ulug‘bek Hamdam. “Yolg‘izlik”. Toshkent, “Qatortol-Kamolot”, 1998, 39-bet.

”[1]Har ikki asarda qahramonlarning ochiq derazadan tashqariga bo‘ylashish, daraxtning mayin shabbodasidan zavq olish, uni kuyga mengazish charchagan holda tabiatga yuzlashish, tunda oyni, yulduzni kuzatish va undan orom olish hollarida tipologik hodisala o‘rganildi.

Har ikki asarlarda daraxt inson uchun qulaylik vositasi va zavq beruvchi, yolg‘izlikdan qutqaruvchi inson ruhiyatiga ta’sir qiluvchi, uni tinchlantiruvchi va o‘tmishni yodga soluvchi timsol sifatida topologik omillarni yuzaga keltiradi.

Xulosa. Daraxt obrazi badiiy asarlarda ko‘plab ramziy ma’nolar kasb etadi. Daraxt, odatda, hayot, baraka, o‘sish, mustahkamlik va abadiylikni ifodalaydi. U inson va tabiat, hamda avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ramziylashtiradi. Ko‘plab asarlarda daraxt oila, ildiz, ota-bobolarning ruhi, hayotiy sinovlarga qarshi turish qobiliyati kabi ma’nolarga ega. Daraxt qachonlardir kesilishi yoki qurishi yo‘qotish, iztirob, ajralish kabi his-tuyg‘ularni ham ifodalashi mumkin. Shu tariqa, badiiy asarlarda daraxt obrazi inson hayoti, taqdir va tabiat orasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqur anglashga xizmat qiladi

Badiiy asarlardagi daraxt obrazi hayotiy energiya, baraka, sobitlik va avlodlar davomiyligining kuchli ramzidir. U orqali yozuvchi o‘z asarida hayot falsafasi, tabiat va inson munosabatlari hamda ruhiy kechinmalarni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Karimov B. Ulug‘bekning dil izhori. Toshkent, “Akademnashr”, 2010.

(2). Karimov N. XX asr O‘zbek adabiyoti taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari va milliy istiqlol mafkurasi. Filol. fan. d-ri ... dis. avtoref., Toshkent, 1993.

(3). Шарафуддинова М.О. Узбекская проза XX века в контексте мировой литературы. Ташкент, “Фан”, 2008.

(4). Шарафуддинова М.О., Саидов А.Х., Мирза-Ахмедова П.М. Художественная и критическая мысль в контексте национальной и мировой традиции. Ташкент, “Фан”, 2009.

(5). Nasirova Z.H. A study of twentieth-century japanese literary processes. International journal of advanced research. Indiya. Impakt-faktor 6,8. 2021, № 9, p. 832–839

(6). Nasirova Z.H. Descriptive skills of Japanese writers. Asian Journal of Multi dimensional research, 2021, p. 121–124.

(7). Nasirova Z.H. “The theory of neosensualism” in XX century japanese literature. 2022, № 12, p. 107–111.

(8). Nasirova Z.H. Japanese literature in the context of world literature wos, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023.

[1] Юкио Мисима. “Исповедь маски”. Санкт-Петербург, “Азбука классика”, 2006, с. 42.